

**PREZIDENT MAKTABLARIDA SHAKLLANGAN ILG'OR PEDAGOGIK
TAJRIBALARNI UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIGA JORIY ETISHNING
NAZARIY-METODIK ASOSLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19189359>

Boltaboyeva Irodaxon Isanovna

*Farg'ona viloyati Qo'qon shahridagi 5-VIDUMI ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,
tel: +998905676008, e-mail: boltaboevairoda1975@gmail.com.*

Annotatsiya

Mazkur maqolada Prezident maktablarida shakllangan ilg'or pedagogik tajribalarni umumiy o'rta ta'lim tizimiga joriy etishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Unda zamonaviy ta'lim texnologiyalari, kompetensiyaviy yondashuv, o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlar hamda ularni umumiy maktablar sharoitida qo'llash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, Prezident maktablari tajribasini transfer qilishda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *Prezident maktablari, ilg'or pedagogik tajriba, umumiy o'rta ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion ta'lim, metodik asoslar.*

Аннотация

В статье анализируются теоретико-методические основы внедрения передового педагогического опыта, сформированного в Президентских школах, в систему общего среднего образования. Рассматриваются современные образовательные технологии, компетентностный подход, инновационные методы развития критического и креативного мышления учащихся, а также возможности их адаптации к условиям массовых общеобразовательных школ. Особое внимание уделяется проблемам трансфера педагогического опыта Президентских школ и путям их решения на научно-методической основе.

Ключевые слова: *Президентские школы, передовой педагогический опыт, общее среднее образование, компетентностный подход, инновационные методы обучения, методические основы.*

Abstract

This article analyzes the theoretical and methodological foundations for implementing advanced pedagogical practices developed in Presidential Schools into the general secondary education system. The study highlights modern educational technologies, a competency-based approach, and innovative methods aimed at developing students' critical and creative thinking, as well as the possibilities of adapting these practices to mainstream schools. The

article also identifies challenges in transferring the experience of Presidential Schools and provides scientific and methodological recommendations for effective implementation.

Key words: *Presidential Schools, advanced pedagogical practices, general secondary education, competency-based approach, innovative teaching methods, methodological framework.*

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifat va samaradorligini oshirish har bir davlatning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim bosqichi shaxs kamolotining poydevori bo'lib, unda qo'llanilayotgan pedagogik yondashuvlar, metod va texnologiyalar jamiyatning intellektual salohiyatini belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish jarayonida Prezident maktablari faoliyatining yo'lga qo'yilishi ta'lim sifati va mazmunini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Prezident maktablari zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xalqaro ta'lim dasturlari, kompetensiyaviy yondashuv hamda o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ilg'or ta'lim amaliyotlari asosida tashkil etilgan. Ushbu maktablarda o'qitish jarayonining individuallashtirilishi, fanlararo integratsiya, STEAM yondashuvi, loyiha asosida o'qitish va formativ baholash kabi ilg'or pedagogik tajribalar muvaffaqiyatli joriy etilmoqda. Natijada Prezident maktablari qisqa vaqt ichida ta'lim sifati va natijadorligi bo'yicha namunaviy ta'lim muassasalari sifatida e'tirof etilmoqda.

Biroq ta'lim tizimida barqaror va tizimli rivojlanishga erishish uchun mazkur ilg'or tajribalarni faqat alohida ixtisoslashgan maktablar doirasida emas, balki umumiy o'rta ta'lim muassasalariga ham bosqichma-bosqich joriy etish zarurati mavjud. Aynan shu jarayonda Prezident maktablarida shakllangan pedagogik tajribalarni ommaviy maktablar sharoitiga moslashtirishning nazariy-metodik asoslarini aniqlash dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda, chunki umumiy o'rta ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati va o'quvchilarga yaratilayotgan sharoitlar Prezident maktablaridan sezilarli darajada farq qiladi.

Amaldagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ilg'or pedagogik tajribalarni transfer qilish masalasida ayrim metodik tavsiyalar mavjud bo'lsa-da, Prezident maktablari tajribasini tizimli va ilmiy asosda joriy etishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Aksariyat hollarda innovatsion metodlar izchil tarzda qo'llanmayotganligi sababli ularning samaradorligi to'liq namoyon bo'lmayapti. Shu sababli Prezident maktablarida shakllangan ta'lim modelining asosiy komponentlarini aniqlash, ularni umumiy o'rta ta'lim tizimiga moslashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi²¹.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Prezident maktablarida shakllangan ilg'or pedagogik tajribalarni umumiy o'rta ta'lim tizimiga joriy etishning nazariy va metodik asoslarini tahlil qilishdan iborat. Mazkur maqolaning mohiyatini yoritish davomida zamonaviy pedagogik

²¹ Abdullayeva N.M., Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish masalalari. Pedagogika va ta'lim muammolari. - Toshkent, 2020. 45-b.

yondashuvlar, ularni transfer qilish imkoniyatlari hamda ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish, o'quv jarayonini xalqaro standartlar asosida tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Shu jarayonda Prezident maktablari ilg'or pedagogik yondashuvlar, innovatsion ta'lim texnologiyalari va samarali boshqaruv modeli asosida faoliyat yuritib, ta'lim sifatini oshirishda muhim tajriba maydoniga aylandi. Mazkur tajribalarni umumiy o'rta ta'lim maktablariga bosqichma-bosqich joriy etish ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilar kompetensiyalarini rivojlantirish va o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Prezident maktablarida yaratilgan asosiy imkoniyatlardan biri — ta'lim jarayonining kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishidir. Bu maktablarda o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki tanqidiy fikrlash, muammo yechish, muloqot va hamkorlikda ishlash kabi XXI asr ko'nikmalarini shakllantiradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa o'quv jarayoni ko'pincha bilimlarni yod olishga yo'naltirilgan bo'lib, kompetensiyalarni rivojlantirish fragmentar tarzda amalga oshirilmoqda. Shuning uchun Prezident maktablarida qo'llanilayotgan loyiha asosida o'qitish, muammoli vaziyatlar orqali bilim berish va integratsiyalashgan fanlar yondashuvini umumta'lim maktablari dars jarayoniga moslashtirish zarur.

Yana bir muhim farq – o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va metodik qo'llab-quvvatlanishida namoyon bo'ladi. Prezident maktablarida pedagoglar muntazam ravishda malaka oshirish kurslari, treninglar va mentorlik dasturlarida ishtirok etadi. Ularning darslari doimiy monitoring qilinadi, tahlil va refleksiya madaniyati shakllantirilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa malaka oshirish ko'pincha nazariy xarakterga ega bo'lib, olingan bilimlarning amaliyotga tatbiqi yetarli darajada ta'minlanmaydi. Shu sababli Prezident maktablari tajribasi asosida umumta'lim maktablarida ichki metodik hamjamiyatlar, mentor-shogird tizimi va dars tahlili amaliyotini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Ta'lim muhitining texnik va moddiy ta'minoti ham muhim solishtirma jihat hisoblanadi. Prezident maktablari zamonaviy laboratoriyalar, raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim platformalari bilan to'liq jihozlangan. Bu esa o'quvchilarga tajribaviy, amaliy mashg'ulotlar orqali bilim olish imkonini beradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnik baza maktabdan maktabga keskin farq qiladi, bu esa ta'lim sifati tengligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi²². Shu nuqtayi nazardan, Prezident maktablarida samarali qo'llanilayotgan raqamli platformalarni soddalashtirilgan shaklda umumta'lim maktablariga joriy etish, kam xarajatli, lekin samarali raqamli vositalardan foydalanishni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Baholash tizimi masalasiga ham alohida ahamiyat qaratmoq darkor. Prezident maktablarida formativ baholash, o'quvchining individual rivojlanish dinamikasini kuzatish va tahlil qilish ustuvor hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa asosan summativ baholashga e'tibor qaratilib, baho ko'proq nazorat vositasi sifatida qo'llaniladi. Shu bois

²² Karimov B.X. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularni umumta'lim maktablarida qo'llash. -Toshkent, Fan va texnologiya, 2019. 156-b.

baholashni o'qitishning bir qismi sifatida tashkil etish, o'quvchiga rivojlanish uchun aniq tavsiyalar berishga xizmat qiladigan formativ baholash elementlarini keng joriy etish zarur.

Prezident maktablari tajribasini umumiy o'rta ta'lim maktablariga joriy etishda bosqichlilik tamoyiliga amal qilish muhim. Avvalo, mazkur maktablarda sinovdan o'tgan metod va texnologiyalarni tahlil qilish, ularni umumta'lim sharoitiga moslashtirish lozim. Ikkinchidan, tajriba-sinov maktablari orqali yangi yondashuvlarni joriy etib, keyinchalik muvaffaqiyatli modellarni kengaytirish maqsadga muvofiq²³.

Qolaversa, o'qituvchilarni o'zgarishlarga tayyorlash, ularning motivatsiyasini oshirish va metodik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish zarur. Prezident maktablarida shakllangan pedagogik tajribalar umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayyor andoza emas, balki moslashtirilishi lozim bo'lgan samarali model hisoblanadi. Ushbu tajribalarni izchil, tizimli va amaliy yondashuv asosida joriy etish orqali umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh va zamonaviy fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda Prezident maktablarida shakllangan ilg'or pedagogik tajribalarni umumiy o'rta ta'lim tizimiga joriy etish jarayonida bir qator tavsiyalar keltiriladi:

-umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish hamda loyiha asosida o'qitish, muammoli vaziyatlar orqali bilim berish metodlarini amaliyotga joriy etish;

-pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida amaliy yo'naltirilgan malaka oshirish kurslarini tashkil etish, mentor–shogird tizimini joriy etish va darslarni tahlil qilish mexanizmlarini takomillashtirish;

-ta'lim jarayonida formativ baholash usullaridan foydalanishni kengaytirish, o'quvchilarning individual rivojlanish ko'rsatkichlarini hisobga oluvchi baholash tizimini shakllantirish;

-prezident maktablarida samarali qo'llanilayotgan raqamli ta'lim resurslari va elektron platformalarni umumiy o'rta ta'lim maktablari sharoitiga moslashtirilgan holda joriy etish.

Ilg'or pedagogik tajribalarni joriy etishda tajriba-sinov maktablari faoliyatini yo'lga qo'yish va ijobiy natijalarga erishilgan yondashuvlarni bosqichma-bosqich ommalashtirish lozim.

Tadqiqot natijalari Prezident maktablarida shakllangan pedagogik tajribalar zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda tashkil etilganini va ularning ta'lim sifatini oshirishda samarali ekanini ko'rsatdi. Mazkur maktablarda ta'lim jarayonining kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borilishi, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga tizimli e'tibor qaratilishi hamda raqamli ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanilishi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa ushbu yondashuvlarning yetarli darajada tizimli va izchil joriy etilmaganligi kuzatiladi. Xususan, o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish,

²³ Karimov B.X. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularni umumta'lim maktablarida qo'llash. -Toshkent, Fan va texnologiya, 2019. 156-b.

formativ baholashni qo'llash va pedagoglarning amaliy metodik tayyorgarligini oshirish jarayonlari ba'zi maktablarda to'liq tashkillashtirilmagan. Bu holat ta'lim samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Shu bois Prezident maktablarida sinovdan o'tgan pedagogik yondashuv va metodlarni umumiy o'rta ta'lim maktablari sharoitiga moslashtirilgan holda joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu tajribalarni bosqichma-bosqich, ilmiy asoslangan holda tatbiq etish umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'lim sifati va natijadorligini oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ta'lim tizimini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi farmon va qarorlar to'plami. – Toshkent, 2019-2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.
3. Prezident maktablarini rivojlantirish agentligi. Prezident maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2021.
4. Abdullaeva N.M. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish masalalari. Pedagogika va ta'lim muammolari. – Toshkent, 2020. – №3. – B. 45–49.
5. Karimov B.X. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularni umumta'lim maktablarida qo'llash. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 156 b.